

---

## INSON QADRI UCHUN – NAVBATDAGI FUQAROLAR QABULI

Bugun tuman Xalq qabulxonasi binosida tuman hokimi o'rinbosarlari, Xalq qabulxonasi mudiri va tuman sektor rahbarlari ishtirokida navbatdagi hokim qabuli o'tkazildi. Fuqarolar bilan ochiq muloqot tarzda o'tkazilgan qabul jarayonida ularning muammolari va takliflarini tinglandi.

Qabulda 25 nafardan ortiq aholi hokim qabuliga yozligan bo'lib, qabulda fuqarolar tomonidan bola puli, ishga joylashish, moddiy yordam, sog'lig'ini tiklash, uy-joy bilan taminlash, o'zaro kelishmovchiliklar kabi turli masalalarda fuqaro murojaatlari yo'llandi.

Fuqarolarga qonun doirasida tushuntirish va muammolar yechimi yuzasidan tegishli tashkilot mutasaddilarga topshiriq va ko'rsatmalar berildi. Murojaatlarning 8 tasi joyida hal etilib, ularning 12 tasiga huquqiy maslahat berildi. 5 ta murojaat nazoratga olindi.

Muddat talab qiladigan murojaatlar yechimini topish bo'yicha tuman hokimi tomonidan shaxsan nazoratga olinganayotganligini eslatib o'tamiz.

2022-11-24 13:42:51